QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 7-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i07.157

BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING AKMEOLOGIK CHOLG‘U IJROCHILIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Muxsinova Mo‘mina Maqsudjon qizi
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
ORCID: 0009-0001-0496-0055

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda akmeologik cholg‘u ijrochiligi imkoniyatlaridan foydalanishning nazariy jihadan tadqiq etgan mahalliy, mustaqil davlatlar hamdo‘stligi hamda xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari yuzasidagi nazariy tahlillar keltirib o‘tilgan.

Tayanch iboralar: musiqa, kasbiy tayrgarlik, akmeologik cholg‘u ijrochiligi, cho‘qqi, ijod, nazariy asoslar, musiqa pedagogika, musiqiy ta’lim, ijrochilik, repertuar.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ИНСТРУМЕНТАЛЬНОГО ИСПОЛНЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ

Аннотация: В данной статье представлен теоретический анализ результатов научно-исследовательских работ, проведенных отечественными и зарубежными учеными из стран Содружества Независимых Государств, теоретически исследовавшими использование возможностей акмеологического инструментального исполнительства в совершенствовании профессиональной подготовки будущих учителей музыки.

Ключевые слова: музыка, профессиональная подготовка, акмеологическое инструментальное исполнительство, пик, творчество, теоретические основы, музыкальная педагогика, музыкальное образование, исполнительство, репертуар.

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING ACMEOLOGICAL INSTRUMENTAL PERFORMANCE OF FUTURE MUSIC TEACHERS

Abstract: This article presents a theoretical analysis of the results of scientific research conducted by domestic and foreign scholars from the Commonwealth of Independent States who have theoretically studied the possibilities of using acmeological instrumental performance in improving the professional training of future music teachers.

Keywords: music, professional training, acmeological instrumental performance, peak, creativity, theoretical foundations, music pedagogy, musical education, performance, repertoire.

Kirish. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining akmeologik cholg‘u ijrochiligini rivojlantirishda musiqiy-ijro va musiqiy-pedagogik faoliyat sharoitida uning xususiyatlari musiqa o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablarni tavsiflovchi badiiy va ijodiy jarayon sifatida kasbiy faoliyat mazmunining turli jihatlarini o‘rganadilar.

Mahalliy musiqa pedagogikasi ta’limi tizimida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorlashda keng ilg‘or ilmiy va amaliy tajriba to‘plangan. Musiqa pedagogik tadqiqotlar yo‘nalishlari, xususan, talaba shaxsi va uning faoliyatida yuzaga keladigan kasbiy yo‘nalishi muammolari, talaba tayyorgarligining mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari, kasbiy-ijodiy rivojlanishida kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy fazilatlari muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Musiqa ta’limi yo‘nalishidagi musiqa pedagogik ta’limning boshlang‘ich, o‘rta va yuqori darajalarida o‘quv jarayonini tashkillashtirish, optimallashtirish va texnologik tashkillashtirishda talaba shaxsining badiiy va ijodiy rivojlantirish texnologiyalarini ilmiy jihatdan ishlab chiqishga asoslangan.

Shuningdek, musiqiy-nazariy, ijrochilik, musiqashunoslik, musiqa ta’limi pedagogikasi va psixologiyasi, musiqa ta’limi aksiologiyasi va pedagogikasi sohasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlar, ushbu jarayonda olib borilayotgan tadqiqotlarning yangiligi va mazmuni, ularning samaradorligi bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining akmeologik cholg‘u ijrochiligini o‘rganish uchun ilmiy-amaliy asosdir. Musiqa pedagogik ta’limi nazariyasida akmeologik cholg‘u ijrochiligini o‘rganishning uslubiy asoslariga murojaat qilaylik. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining akmeologik cholg‘u ijrochiligisining mohiyatini va uning xususiyatlarini tushunish uchun asosiy tushunchalarga murojaat qilish alohida ahamiyatga ega, masalan, musiqa o‘qituvchisining kasbiy yo‘nalishi, kasbiy tayyorgarligi, kasbiy o‘zini o‘zi belgilash, kasbiy faoliyat turlarini mukammal egallaganligi bilan belgilanadi.

Asosiy qism. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining akmeologik cholg‘u ijrochiligi metodikasini takomillashtirishda talabalarning kasbiy pedagogik yo‘nalishdagi pedagogik, konsert ijrochilik, musiqa asarlarini yuqori professional darajada ijro etish, o‘z repertuarini muntazam boyitib borish kasbiy pedagogik muammo bo‘lib qolmoqda. Ochig‘ini asytish lozim, bugungi kredit modul tizimida musiqa ta’limi yo‘nalishida tayyorlanayotgan kadrlarning DTS va malaka talablarini ishlab chiqishda ularning tashkiliy komptensiyasini takomillashtirishda davlat tomonidan bir qator talablar qo‘yilmoqda. Biroq, ularning kasbiy jihatdan qanday bo‘lishi kerak, nimani va qanday ijro etish lozim, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi qanday repertuarga ega bo‘lishi kerakligi borasida davlat tomonidan minimal talablar belgilanmagan.

Xuddi ana shu bugungi globallashgan dunyo ta’limi talablari asosida kadrlar tayyorlashda yoki xalqimizning noyob, takrorlanmas milliy musiqa merosini asl xolatidek

saqlashda qanday xizmat qilayapti degan muammolarni o‘rtaga tashlaydi. Umuman olganda, kasbiy va pedagogik yo‘nalish ko‘rib chiqiladi: bo‘lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligini shaxs sifatida rivojlantirishning muhim xususiyati va shartidir; musiqa kasbni rivojlantirishda uning uslubiy, didaktik, tashkiliy vositalari majmuasi sifatida ko‘rib chiqishni va takomillashtirib borishni taqazo etadi [3].

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining akmeologik cholg‘u ijrochiligini takomillashtirish masalasini asoslashning muhim jihati kasbiy ijrochilik fanlarida ishlab chiqilgan va talaba shaxsining kasbiy yaroqliligi masalasiga murojaat qilish asosida ko‘rib chiqiladi [4]. Xuddi shu o‘rinda kasbiy muvofiqlik atamasini mavzu nuqtai nazardan asoslash lozim bo‘ladi.

Kasbiy muvofiqlik – “insoniyatning butun umri davomida mashg‘ul bo‘ladigan va uni o‘z tajribalari doirasida takomillashtirib boradigan kasb tizimidagi munosabatlaridir. Ushbu kasbiy muvofiqlik ta’siri ostida talaba rivojlanadi, o‘z ijrochilik yoki boshqa kasbiy xususiyatlarni takomillashtirib boradi. Shu munosabat bilan, kasbiy faoliyatda o‘zini o‘zi anglash jarayonida olingan inson xususiyatlari va faoliyat xususiyati ushbu mulkda sintezlanadi, buning natijasida inson tanasi va ruhiyatining tarkibiy va funksional xususiyatlari uning mazmuni, vositalari va sharoitlarida dasturlashtirilgan tarzda aks ettiriladi [3].

Tadqiqotimizning xuddi ana shu yondashuvi “akmeologik” nuqtai nazarga ega, chunki uni shaxsning kasbiy mahorati va faoliyatining kasbiy-pedagogikligi birligini tushunish uchun asos sifatida ko‘rib chiqish mumkin, uning rivojlanishi bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi shaxsining rivojlanish cho‘qqilariga o‘z-o‘zini harakat qilish jarayoni sifatida o‘z-o‘zini anglash bilan bog‘liq bo‘ladi. Shaxs va faoliyat o‘rtasidagi munosabatlar muammosini tahlil qilishda biz tomonimizdan ishonchli tarzda taqdim etilgan “faoliyat holatidagi shaxs”, “faoliyat asosida talaba shaxsining dinamik ko‘p fazali rivojlanishi”, “shaxsiy o‘zgarishlar ketma - ketligining maxsus turi sifatida tushunish tavsiya etiladi [3].

Akmeologik cholg‘u ijrochiligini rivojlantirish, shuningdek, talaba shaxsning o‘rganilayotgan kompetensiyani rivojlantirishning dinamik va faol xususiyatini ta’minlaydigan ehtiyoj bo‘lgan kasbiy o‘zini o‘zi belgilash istagiga bog‘liq. Musiqa pedagogika fani nuqtai nazaridan qaralganda, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlaridan A.K.Markovaning yondashuviga ko‘ra, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining o‘zini o‘zi belgilashining quyidagi bosqichlarini ajratish mumkin: ularning xususiyatlari, fazilatlari, qobiliyatlarini aniqlash; mezonlarni, o‘zini baholash me’yorlarini tanlash; o‘zini baholashning talab qilinadigan me’yorlariga mos keladigan fazilatlarini aniqlash; potensial fazilatlarini kutish; o‘z maqsadlari, vazifalari, rejalarini tuzish; mezonlar va o‘z-o‘zini baholashni qayta ko‘rib chiqish, o‘z-o‘zini aniqlash, qadriyatlarni o‘zgartirish[14].

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining akmeologik cholg‘u ijrochiligi talaba shaxsiy o‘zini o‘zi belgilashning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u o‘zi va dunyo haqidagi g‘oyalar birlashtirilgan, kelajakka yo‘naltirilgan va inson o‘z hayot sohasini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan semantik tizimni rivojlantirish zarurligini aks ettiradi [2]. Ushbu qoida prizmasi

orqali rivojlanishning ma’lum bir bosqichida o‘z taqdirini o‘zi belgilash samaradorligi tufayli akmeologik cholg‘u ijrochiligini rivojlantirish jarayoni ham ko‘rib chiqilishi kerak.

Akmeologiya fanining toifalari sifatida “akmeologik cholg‘u ijrochiligi” va “kasbiy faoliyat” tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. “Kasbiy faoliyat” tushunchasi kasbiy-musiqiy mehnat sohasidagi yetakchi mahalliy olimlardan Q.Panjiyevning tadqiqotlarida kuzatish mumkin. Uning fikriga ko‘ra, kasbiy faoliyat – “har doim jamiyatning iqtisodiyot tarmoq sohalarining iste’mol predmetini tashkil etuvchi va ishlab chiqariladigan faoliyati mavjud bo‘lgan ish harakat tizimidir” [6] deydi. Shu bilan birga, ushbu ixtisoslashtirilgan va maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan faoliyat ekanligi ta’kidlab o‘tgan.

Nazarimizda bunday yondashuvlar bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy faoliyatining mazmuni va mohiyatini tushunishga nisbatan ham dolzarbdir, uni o‘rganish musiqa san’atiga tegishlilik nuqtai nazaridan uni badiiy-ijodiy faoliyat sifatida tavsiflashga imkon beradi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining akmeologik cholg‘u ijrochiligi metodikasini takomillashtirish borasidagi ushbu yondashuvdan uning pedagogik, musiqa pedagogikasining va umuman olganda musiqa san’atining akmeologik xumumiyatlariga murojaat qilaylik, bu musiqa pedagogikasi va akmeologiyaga oid boshqa shunga yaqin fanlarning yutuqlarini talqin qilishda, o‘qituvchi – bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligiga, shuningdek musiqiy ta’lim nazariyasi va amaliyoti sohasidagi tadqiqotlar natijalariga bog‘liq.

Badiiy ijodning kasbiy pedagogik jihatlarini ta’kidlash bugungi globallashgan dunyo ta’lim tizimida jamiyatning badiiy madaniyatini roli oshishi munosabati bilan o‘zining yanada dolzarbligi bilan ajralib turadi. Badiiy ijodni talqin qilishda musiqa pedagogikasi yo‘nalishida akmeologik yondashuvning turli usul va vositalarini qo‘llashni taqazo etadi.

Xuddi shu o‘rinda xoroijiy olimlardan Langly P., Maslou A.H., Repp V.H., Samoylenko E., Torrance E.P., Hebert S. va boshqalarning tadqiqotlarida kuzatilgan shaxsning ijodiy rivojlanishi muammosi tarixiy jihatdan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga bog‘liqligi haqida bir qator asosli ma’lumotlar keltirib o‘ztilgan. Musiqa ta’limidagi o‘rnatilgan an’analarga asoslanib, taniqli olim, pedagog, musiqa o‘qituvchisi G.G. Neygauz kelajakda musiqa o‘qituvchisini nafaqat musiqa o‘qituvchi – cholg‘u ijrochisi, balki avvalo inson, xonanda, musiqa nazariyotchisi sifatida keng bilimdon mutaxassisni tarbiyalash muhim deb hisoblagan[13].

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining akmeologik cholg‘u ijrochiligi faoliyatining o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risida nuqtai nazar paydo bo‘ldi, chunki birining ishi odamni dunyoda haqiqiy, ikkinchisini ishi esa dunyoda badiiy (xayoliy) yaratadi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi ushbu ikkala funksiyani ham amalga oshirishi kerak, ammo shu bilan birga ularning birlashtirish san’atiga ega bo‘lib, u badiiy hayotda o‘z kasbiy faoliyatini, uning kasbiy ahamiyati va hodisalarini takomillashtirish manbasini ko‘rishi imkonini beradi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining akmeologik cholg‘u ijrochiligini takomillashtirish metodikasini talaba shaxsining bir qator ijodiy fazilatlarini akmeologik cholg‘u ijrochiligining tarkibiy qismlari sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Bunda badiiy va ijodiy

jarayon sifatida kasbiy faoliyatni amalga oshirishning asosiy zamini nimada ekanligini ko‘rsatadi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy ijodiy shaxsiyati o‘ziga xos fazilatlarning murakkab tizimidir. Biz tomonimizdan amalga oshirilgan bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining akmeologik cholg‘u ijrochiligi takomillashtirish metodikasini bir qator komponentlar asosida o‘rganishni taqazo etdi. Motivatsion, intellektual, hissiy-irodaviy, kasbiy-amaliy komponentlar shular jumlasidandir. Bular o‘zaro munosabatlarda ixtiyoriy ravishda shaxsiyatni kasbiy o‘zini o‘zi anglash, qabul qilingan munosabat va qarorlarning qurilishi va samaradorligini ta’minlaydi. Badiiy ijod bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy va pedagogik faoliyatining asosiy xususiyatlaridan biridir. Musiqa ta’limi yo‘nalishi talabasi shaxsining ijodiy rivojlanishi - bu faoliyat mazmunini o‘zlashtirish jarayoniga moslashtirilgan uning pedagogik jarayonlarining rivojlanishi bitlan bog‘liq bo‘lgan tarkibiy komponentlardan biridir. Xususan, ijodiy faoliyatni rivojlantirishni rag‘batlantiradigan aqliy jarayon tasavvurlar shular jumlasidandir.

Ijodiy tasavvur san’at hodisalarining majoziy mazmunini va pedagogik vaziyatlarning mazmunini idrok etish va amalga oshirishga yordam beradi, bu samaradorlik, kasbiy o‘sish, o‘zini takomillashtirish va faoliyat samaradorligini bashorat qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Mahalliy musiqashunos va hamda musiqa pedagog olimlar “tasavvur” atamasini aniqlashda ushbu aqliy jarayonning turli tomonlarini ochib berishadi. “Tasavvur (yoki xayol) - bu inson tomonidan hech qachon umuman qabul qilinmagan g‘oyalar va aqliy vaziyatlarni yaratishdan iborat aqliy faoliyatdir” [2].

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining akmeologik cholg‘u ijrochiligi metodikasini takomillashtirish borasida mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlaridan yana biri B.M. Teplov tasavvurni “o‘tmishdagi idrok materiallari asosida yangi tasvirlarni yaratish” deb ta’riflaydi. Bu tasavvurning idrok va xotira bilan bog‘liqligini va tasavvur tasvirlarda sodir bo‘ladigan jarayon ekanligini ta’kidlaydi” [2].

Ijodiy tasavvurni rivojlantirish musiqiy pedagogik hamda cholg‘u yoki xonandalik ijro jarayoning kasbiy ijodini rivojlantirishning asosiy omilidir. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi - ijrochi faoliyatida faol ijodiy tasavvurning muhim rolini ko‘rsatadi [4]. Tasavvurni rivojlantirish musiqa o‘qituvchining dunyo, san’at va kasbiy faoliyat hodisalarini bilish tajribasini kengaytirish vositasidir.

Akmeologik cholg‘u ijrochiligini rivojlantirish - bu bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining musiqiy (cholg‘u, xonandalik) ijrochilik san’atini o‘zlashtirishda o‘zini o‘zi anglash jarayoni, uning samaradorligi musiqiy fikrlashning faol faoliyati bilan oldindan belgilanadi. Musiqiy ijro va pedagogik ijodning mahsuldorligi musiqiy san’at hodisalari mazmunining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan aqliy operatsiyalarning sifati bilan bog‘liq. Musiqa pedagogik faoliyatning badiiy va ijodiy mazmunini samarali o‘zlashtirish musiqiy tafakkurning rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur anglash jarayoni kasbiy-pedagogik va mahoratga erishishga mos keladigan akmeologik yo‘nalishga ega.

Musiqiy fikrlashni rivojlantirish muammosining turli jihatlari musiq psixologiyasi va musiqashunoslik sohasidagi bir qator ishlarda yoritilgan. Musiqa ta’limi pedagogikasi sohasida ham ushbu muammoga katta e’tibor qaratilmoqda.

Taniqli amaliyotichi olim B.V. Asafiyev o‘z tadqitqotlarida “musiqa intonatsion nazariyasi musiqiy fikrlash muammosini o‘rganishning uslubiy asosidir. Musiqaning intonatsion tabiati, uni idrok etishda intonatsion jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek musiqiy fikrlashning o‘ziga xos xususiyatlari - bu masalalar olimning asarlarida chuqur va har tomonlama yoritilgan. Endi o‘zbek musiqashunoslik fani qonuniyatlari va qoidalariga ko‘ra, musiqani talqin qilish jarayoni blajak musiqa o‘qituvchisi-ijrochining ijodiy faoliyatining mazmuni sifatida belgilanadi: ushbu musiqiy asarni tanishtirish, o‘zlashtirish va ijro etish bosqichlarining birligi, uning “qayta yaratilishi”, ijro rejasining paydo bo‘lishi va amalga oshirilishi bilan bog‘liq hisoblanadi.

Xulosa. Yuqoridagilarga asoslangan holda bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining akmeologik cholg‘u ijrochiligini takomillashtirishning nazariy assoalari borasida shuni xulosa qilish mumkinki, akmeologik cholg‘u ijrochiligi asosan hissiy qobiliyatlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Progressiv amaliy tajribaning umumlashtirilishi shuni ko‘rsatadiki, talaba shaxsini hissiy tarbiyalash muammosini hal qilish uning musiqa ta’limining barcha bosqichlari uchun birdek dolzarbdir. Musiqa pedagoigkasi va didaktikada hissiy tarbiya kasbiy musiqiy ijrochilik jarayonlarining maqsadli rivojlanishini anglatadi. Ular asosan hislar, tuyg‘ular, taassurotlar, tasavvurlar, munosabatlar, g‘oyaviy fikrlar, qarorlar qabul qilish uchun mustahkam va ishonchli vosita bo‘lib xizmat qilishi kerak.

Shuning uchun har kimning “barcha ijtimoiy zarur xususiyatlari” ni rivojlantirish imkoniyatlari shubhasiz, ammo bu xususiyatlar bir xil bo‘lishi mumkin emasligini ham ko‘z oldimizga keltirishimiz shart. B.M.Teplovning so‘zlariga ko‘ra, “iqtidor muammosi, birinchi navbatda, miqdoriy emas, balki sifatli muammodir”. Xususan, cholg‘u ijrochisi qobiliyati har kimda har xil yo‘llar bilan namoyon bo‘ladi. Sifat farqlarini aniqlashga analitik yondashuv iqtidor ruhiyatining birinchi vazifasi bilan belgilanadi [2].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ismilova A.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarning akmeologik madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Ped.fan.falsafa doktori dissetratsiyasi. T.: 2024. 138 b.

2. Teplov B.M. Psixologiya i psixofiziologiya individualnыx razlichiy: izbrannыe psixologicheskie trudы / B. M. Teplov. - Moskva; Voronej, 2004. - 640 s.

3. Xolopova V.N. Tipologiya emotsiy v muzыke /V.N. Xolopova // Xudojestvennыy tip cheloveka. Kompleksnыe issledovaniya. - M.: [B. i.], 1994.-233 s.

4.Maykovskaya L.S. Fenomen etnokulturnoy tolerantnosti v muzыkalnoykulture i obrazovanii: monografiya / L. S. Maykovskaya. - M.: Graf-Press, 2008. - 260 s.

5.Muxsinova M.M O`zbek xalq qo`shiqlarini o`rgatishda, Musiqa asarlari taxlili muammolari In Volume 2, Issue 11 of International Bulletin of Applied Sciences and Technology nomli xalqaro jurnal 16.11.22 ISSN: 2750-3402.

6.Panjiyev Q.B. O‘zbek xalq qo‘shiqlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Ped fan doktori dissertatsiyasi. T.: 2022. 298 b.

7. Langly P. A computational model of scientific insight / P. Langly, R. Johns // R. Sternberg, T. Tardif (eds.). The nature of creativity. - Cambridge: Cambr. Press, 1988. -P. 177-201.

8. Maslou A.H. Motivation and Personality. - New York: Harper and Row, 1989.-472 p.

9. Repp V.H. Relational invariance of expressive microstructure across global tempo chanGES in music performance: An exploratory study / V. H. Repp// Psychological Research. Psychologische Forschung, Jul. - 1994. - Vol. 56 (4). - P. 269-284.

10. Samoylenko E. Systematic analysis of verbalizations produced in comparing musical timbres I E. Samoylenko, St. McAdams, V. Nosulenko // International Journal of Psychology, Dec. - 1996. - Vol. 31 (6). - P. 255— 278.

11. Torrance E.P. The nature of creativity as manifest in the testing / E.P. Torrance // R. Sternberg, T. Tardif (eds.). The nature of creativity. - Cambridge: Cambr. Press, 1988. -P. 43-75.

12. Hebert S. Recognition of music in long-term memory: Are melodic and temporal patterns equal partners? / S. Hebert, I. Peretz. // Memory & Cognition, Jul. - 1997. -Vol. 25 (4). -P. 518-533.

13. Neygauz G.G. Ob iskusstve fortepiannoy igrы / G. G. Neygauz. - M.: Muzыka, 1982. - 300 s.

14. Маркова А.К. Психология касбий-педагогикизма / А. К. Маркова. - М.: Знание, 1996. - 308 с.